

O'ZBEK TILIDA SHAMOL LEKSEMASI SEMANTIKASI

Quronboyeva Gulyora Nuriddin qizi

ToshDO'TAU O'FF 2-kurs talabasi.

gulyoraquronboyeva07@gmail.com +99877 550 46 07

Muhayyo Xakimova

Ilmiy rahbar: F.f.d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21255859>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili leksikografiyasi va badiiy adabiyotida "shamol" leksemasining semantik tadrijiy rivojlanishi hamda lingvistik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda so'zning lug'aviy ma'nosidan ko'chma ma'no qatlamlariga o'tish qonuniyatlari, shuningdek, frazeologik birliklar tarkibidagi pragmatik xususiyatlari ochib berilgan. Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Rauf Parfi va Halima Ahmedova kabi ijodkorlar asarlari misolida "shamol" leksemasining metaforik valentligi va badiiy matndagi personifikatsiyalashuv darajasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: leksema, semantika, metaforik valentlik, personifikatsiya, badiiy matn, o'zbek adabiyoti.

Abstract. This article analyzes the semantic evolution and linguistic possibilities of the lexeme "wind" (shamol) in Uzbek lexicography and literature. The study reveals the patterns of transition from the lexical meaning of the word to figurative layers, as well as its pragmatic features within phraseological units. Based on the works of such creators as Alisher Navoi, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, and Halima Ahmedova, the metaphorical valency of the "wind" concept and the level of its personification in the literary text are highlighted.

Keywords: lexeme, semantics, metaphorical valency, personification, literary text, Uzbek literature.

Tilning boyligi uning leksik sathini tashkil etgan so'zlarning miqdori bilan emas, balki o'sha so'zlarning ma'no nozikliklari va turli vaziyatlarda qo'llanishi bilan belgilanadi. Har bir so'z nutq jarayonida badiiy tasvir vositalari – frazeologik birikmalar, ko'chma ma'nolar va turli sinonimlar orqali yangi ma'no kasb etadi.

Ayniqsa, o'zbek tili leksikografiyasida ko'p ma'noli so'zlarning lug'atlarda berilishi va ularning nutqdagi talqini bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.

Xususan, shamol leksemasi o'zining keng ma'no ko'lami bilan ajralib turadi. Bu esa so'zning semantik imkoniyatlari naqadar boy ekanligidan dalolat beradi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da shamol leksemasining yagona ma'no qatlami mavjud bo'lib, u denotativ ma'nodan ko'chma ma'nolarga qarab rivojlanib boradi:

SHAMOL. Havoning yer sathi bo'ylab gorizontol harakati. Issiq kunda shamol esishi yoqimli. Tunda shamol esdi.¹

Frazeologik birikmalarda esa shamol obrazining bir necha xil ko'chma ma'nolari mavjud bo'lib, ularning har biri nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi:

1. Shamolga uchmoq: Behuda ketmoq, sarf bo'lmoq. Orzular shamolga uchdi. S.Ahmad "Ufq" trilogiyasidan.

2. Shamol uchirdi: Qanday sabab, nimaning sharofati bilan tashrif buyurdingiz, keldingiz.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

Xo'sh, endi so'rab qo'yay: biz tomonlarga qaysi shamol uchirdi? S.Ahmad "Qorako'z majnun" asaridan.

3. Shamolni ravo ko'rmaydi: Nihoyatda ehtiyot qiladi; ardoqlaydi, e'zozlaydi. Bittagina o'g'illarini yalab-yulqab, shamolni ravo ko'rmay, puf-puflab, unga oydin istiqbol tilab yashardilar.

4. Ko'kragiga shamol tegmoq: tang holatdan qutulib, erkin, yengil sharoitga chiqmoq, erkin nafas oladigan bo'lmoq. Hosil mo'l bo'lib, dehqonning ham ko'kragiga shamol tegdi.

5. Shamolga qarshi tupurmoq: O'ziga zarar, yomon oqibat keltiradigan ishni qilmoq.

Hamma amaldorning qosh-qovog'iga tikilganda, faqat ugina haqiqatni aytdi. Bu shamolga qarshi tupurish ekanini bilsa-da, vijdonini sotishni istamadi.

O'zbek adabiyoti va badiiy matnda shamol leksemasi matn talabiga ko'ra turli kontekstual ma'nolarni ifodalaydi.

1. Tezlik va yangilanish ma'nosida.

Turob To'laning shoir Usmon Nosir ijodiga bergan ta'rifiga diqqatimizni qaratsak: "Usmon she'riyatimizga **shamolday kirib keldi**. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi..." . Bu yerda shoirning adabiyot olamiga kirib kelishi sekin-asta kechadigan jarayon emas, balki shiddatli dinamikaga ega hodisa sifatida tasvirlangan.

Shuningdek, shamol turg'unlikni buzuvchi, eskiliklarni supurib tashlovchi va yangi havo olib kiruvchi omil hisoblanadi. Kontekstda shamol leksemasi o'ziga "to'polon" va "to's-to's qilish" kabi semalarni biriktirib, eski qoliplarni parchalovchi kuch ma'nosini yuklaganini ko'rishimiz mumkin.

2. Erk va ozodlik ma'nosida.

Abdulla Oripovning "Yurtim shamoli" she'rida ham shamol obrazi ijobiy xarakterga ega.

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,

Shamollar goh quyun, gohida dovul.

Ular goh oshkora, goho ro'yoda

Qancha bo'stonlarni sovurgan butkul,

Lekin sen bo'lmagan bog'lar zavoli,

O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.²

Shoir shamol leksemasini qo'llashda uni boshqa sinonimik qatordagi tabiat hodisalaridan ajratadi: yurt shamoli dovul va quyun kabi salbiy, vayronkor semantikaga ega birliklardan lisoniy ajratiladi va ularga qarshi qo'yiladi.

Shuningdek, bu tabiat hodisasi shoir tilida "erk" va "ozod" so'zlarining lisoniy vakili bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Oripov lisonida shamol- ijobiy modallikka ega bo'lgan, lirik qahramon va tarixiy xotira vazifasini bajaruvchi, milliy erk va ozodlik g'oyasini tashuvchi leksema sifatida ko'rishimiz mumkin.

3. Ichki kechinma va ruhiy to'polon ma'nosida.

Odatda, shamol tashqarida esadi, lekin Ozoda Bekmurodovanning "Hech bir izohim yo'q ko'nglimga" she'riga e'tibor beradigan bo'lsak, uni ko'ksimda deb qo'llash orqali tashqi harakatni insonning ichki psixologik olamiga ko'chganligini guvohi bo'lamiz:

Holim parishondur, ixtiyorim yo'q,

Ko'ksimda shamollar bir zum tinmaydi...

² Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. Jild 1. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

Siyoh quriganmi, inyasmi nayson

Nahot bu yozuqda giyoh unmaydi...³

4. Elchi (vositachi) ma'nosida.

Mumtoz adabiyotda "shamol" leksemasining "sabo" varianti an'anaviy ravishda "elchilik" vazifasini bajaradi. Xususan, Alisher Navoiyning ushbu g'azalida ham aynan shu ma'noda kelgan:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromoning'a ayt,

Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.

Bu yerda "sabo" leksemasi lirik qahramon va yor o'rtasidagi yagona bog'lovchi zanjirdir. Oshiq o'zining dardi va holatini yoriga shaxsan ayta olmaydi, shuning uchun shamolga murojaat qiladi. Bu leksemaning kommunikativ funksiyasini ochib beradi.

5. Personifikatsiya (Jonlantirish).

Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida shamol leksemasi bilan bog'liq quyidagi jumla aks etgan: "Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuz shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi."⁴ Bu yerda shamol tirik mavjudot kabi tasvirlangan. Uning "chiyillashi", "g'uvullashi" va eng muhimi - "bosh urib uf tortishi" unga insoniy xarakter yuklaydi. Shuningdek, hikoyada shamol leksemasi "baxtsizlik xabarchisi" yoki "fojiaiy fon" vazifasini bajarib kelgan.

6. Taqdir va tavakkul ramzi.

Rauf Parfi ijodida bu so'z o'zining birlamchi lug'aviy chegarasidan chiqib, polisemantik so'zga aylanadi. Shuningdek, shoir an'anaviy til normalariga bo'ysunmagan holda, "shamol" so'zi ishtirokida okkazonal birikma hosil qiladi:

Shamolga osilib yashadim,

Mingga kirdim, chirida jismim,

So'ngaklarim oqardi qaqshab.⁵

"Shamolga osilib yashash" birikmasi o'zbek tilining odatdagi normalarida mavjud emas.

Odatda, "osilmoq" fe'li harakatsiz jismga nisbatan qo'llanadi. Bu yerda esa doimiy harakatdagi hodisaga bog'langanini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ikki qarama-qarshi semaning birikishi natijasida okkazonal ma'no yuzaga kelyapti. Natijada, bu leksema o'zida majburiylik va ixtiyoriylik holatini gavdalantiryapti.

Majburiylik: ushbu birikmada sub'ekt o'z ixtiyoridan tashqari, mahkumlik va erksizlik holatida ekanligi ifodalanadi. Ixtiyoriylik: shu bilan birga, shoir shamolni tavakkul timsoli deb biladi. Bunda inson o'z ixtiyori bilan barcha umidini Allohga bog'lab, o'zini "shamol irodasi" ga topshiradi. Bu esa qahramonning ongli ravishda qabul qilgan majburiyatidir.

Shu tariqa shamol ko'p qirrali ma'noga ega bo'lgan leksema sifatida namoyon bo'lyapti..

7. Dard tashuvchi ma'nosida.

Shoira Halima Ahmedova ijodida bu leksemani an'anaviy lug'aviy ma'nosidan uzoqlashtirib, unga insoniy sifatlar va ruhiy vazifa yuklaganini ko'rishimiz mumkin:

Turnalar ovozi meni uyg'otdi,

Sarg'aygan bir ilinj o'tabmi jonni.

Shamol qovurg'asin sindirib qo'ydi

³ Bekmurodova O. Hech bir izohim yo'q ko'nglimga... // Almehr.uz: elektron kutubxona. – URL: <https://www.almehr.uz/uz/lib/friends/ozoda-bekmurodova> (Murojaat sanasi: 15.04.2026).

⁴ Qahhor A. "Dahshat". Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2007.

⁵ Parfi R. Saylanma. – Toshkent: Akademya, 2013.

Ustidan qah-qaha urgan xazonni.

Men uzoq uxladim, ko'zimda hamon

Quyoshsiz kechaning g'amgin uyqusi,

Qadim suvoriyday chopar to'rt tomon

Shamol yelkasida hayot qayg'usi...⁶

Shoira ijodida shamol shunchaki tabiat hodisasi emas, balki "yelkasi" bor, tirik mavjudot sifatida gavdalanadi: "Shamol yelkasida hayot qayg'usi...". Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu yerda metaforani va shamol leksemasining valentligi kengayganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'z she'rda "vositachi" va insoniy dardlarni tashuvchi faol sub'ekt vazifasida kelmoqda.

Xulosa. Leksikografiyada, asosan, fizik hodisa sifatida ta'riflangan "shamol" leksemasi, o'zbek adabiyotida ma'nolar tizimiga aylangan, ya'ni ushbu so'z denotativ ma'nodan ko'chma va frazeologik ma'nolarga qadar rivojlangan. Kontekstual tahlil shuni ko'rsatadiki, bu leksema ishtirokidagi iboralar insonning erkinlik, yo'qotish va muloqot bilan bog'liq bo'lgan pragmatik holatlarini lisoniy mujassamlashtiradi.

Tadqiq etilgan badiiy matnlar ushbu leksemaning o'zbek adabiyotida naqadar keng ko'lamli ekanligini ilmiy jihatdan ochib bergan. Alisher Navoiy ijodidagi an'anaviy "elchi" (sabo) vazifasidan boshlangan semantik o'zgarish zamonaviy adabiyotda yangicha falsafiy qatlamlar bilan boyigan. Xususan, Usmon Nosirga berilgan ta'rifda ushbu leksema ijodiy shiddat va yangilanish ramzi sifatida namoyon bo'lsa, Abdulla Oripov ijodida milliy erk va ozodlik g'oyalarini tashuvchi ijobiy leksemaga aylanadi. Rauf Parfi talqinida shamol an'anaviy lug'aviy chegaralaridan chiqib, inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni ifodalovchi polisemantik obrazga o'zgarganini guvohi bo'lamiz. Halima Ahmedova ijodida shamolga insoniy dardlarni tashuvchi "yelka" atributining berilishi esa uning metaforik valentligi naqadar kengligini tasdiqlaydi.

Nasriy asarlarda, xususan, Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida shamolning personifikatsiya qilinishi matnda nafaqat estetik muhit yaratadi, balki insonning qo'rquvlarini gavdalandiradi. Umumlashtirib aytganda, o'zbek tilidagi "shamol" bilan bog'liq iboralar va badiiy tasvirlar o'zaro uyg'unlikda turli xil ziddiyatli tushunchalarni birlashtiruvchi metaforik maydonni tashkil etadi. Bu esa mazkur leksemaning lisoniy valentligi va badiiy imkoniyatlarini o'zbek tili sistemasida cheksiz ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedova H. "Erk darichasi". – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
2. Bekmurodova O. Hech bir izohim yo'q ko'nglimga... // Almehr.uz: elektron kutubxona. – URL: <https://www.almehr.uz/uzl/lib/friends/ozoda-bekmurodova> (Murojaat sanasi: 15.04.2026).
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. Jild 1. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
5. Parfi R. Saylanma. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
6. Qahhor A. "Dahshat". Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. Ahmad S. "Qorako'z majnun". – Toshkent: Sharq, 2016.

⁶ Ahmedova H. "Erk darichasi". – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.